



O'zbekiston Respublikasi
Markaziy banki

MEHNAT BOZORI SHARHI

II chorak 2025-yil

**Pul-kredit siyosati departamenti
tomonidan tayyorlandi**

Mehnat bozori sharhi


Mehnat resurslari

Ish o'rinlari va mehnat arizalari e'lon qilinib boriladigan onlayn ochiq manbalar ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilning II choragi davomida mehnat bozorida taklif etilayotgan bo'sh ish o'rinlari sonining **sezilarli o'sishi kuzatildi**. Xususan, ushbu davrda biznes subyektlari tomonidan I chorakka nisbatan **28,7 foizga** ko'p ish o'rinlari e'lon qilinib, ularning salmoqli qismi savdo (19,4%), umumiy ovqatlanish (17,5%) va ishlab chiqarish (16,8%) tarmoqlari hissasiga to'g'ri keldi (1-rasm).

II chorakda asosan maxsus ko'nikma va malakaga ega bo'lgan ish qidiruvchilar tomonidan foydalaniladigan manbalarda faol mehnat arizalari (rezyumelar) soni ham o'sishda davom etdi. Ma'lumotlarga ko'ra¹, savdo, xizmat ko'rsatish, marketing va reklama sohalarida rezyumelar soni sezilarli oshgan.


Shu bilan birga, joriy yil davomida onlayn ish qidirish faolligi dinamikasi so'nggi yillarga nisbatan **pasayish tendensiyasini namoyon etdi** (2-rasm).

1-rasm. 2025-yilda e'lon qilinayotgan bo'sh ish o'rinlari soni, mingta



Manba: Markaziy bankning ochiq ma'lumotlarga asoslangan hisob-kitoblari.

2-rasm. Ish qidirish bo'yicha so'rovlar sonining nisbiy dinamikasi indeksi



Manba: Google Trends ma'lumotlari asosida Markaziy bank hisob-kitoblari.


¹ <https://buka.hh.uz/article/33819>.

2025-yilning II choragida vakansiyalar sonining sezilarli o'sishi mavsumiy omillar, jumladan iqtisodiy faollikning jonlanishi va talabning oshishi bilan bog'liq. Biroq, vakansiyalar soni ortib borishi sharoitida onlayn ish qidirish faolligi pasayishi mehnat bozorida **talab va taklif o'rtasida nomutanosibliklar** kuzatilayotganligini bildiradi. Ya'ni, bu biznes tomonidan maxsus ko'nikma va malakaga ega bo'lgan ishchilarga nisbatan talabning oshayotganligi, biroq ish qidiruvchilar orasida ushbu ko'nikmaga ega bo'lgan xodimlarning yetishmasligi yoki aksincha rezyumelarning mavjud talablarga mos kelmasligi joriy dinamikaning shakllanishiga xizmat qilgan bo'lishi mumkin.

Markaziy bank tomonidan o'tkazilgan iqtisodiy faollik bo'yicha so'rovnoma natijalari kelgusi oylarda **ish o'rinlari sonini oshirishni kutayotgan tadbirkorlar ulushi pasayayotganligini** ko'rsatmoqda. Jumladan, II chorak davomida o'rtacha **30,2 foiz** (*I chorakda 36,3 foiz bo'lgan*) tadbirkorlar kelgusi uch oyda ish o'rinlari sonini oshirishini bildirishgan.

Shu bilan bir qatorda, mazkur davrda **ish o'rinlari sonini joriy holatda saqlab qolishni bildirgan tadbirkorlar ulushining o'sishi** kuzatilgan (*I chorakdagi o'rtacha 56,4 foizdan II chorakda 61,2 foizgacha*). Bu kelgusi chorakda ham biznes subyektlari talabning o'sishi saqlanib qolishini, biroq uning o'sishi avvalgi davrlarga nisbatan pastroq shakllanishini kutayotganligini va shu sababli ishchi kuchini moslashtirishga tayyorgarlik ko'rayotganligini ko'rsatadi. Natijada, qisqa muddatli oraliqda iqtisodiy o'sishning tezlashishi, ishsizlik darajasining pasayishi hamda talab tomondan narxlarga bosim ortishi kuzatilishi mumkin (*3.a-rasm*).

Ish o'rinlari sonini oshirishni kutayotgan tadbirkorlik subyektlari ulushining **pasayishi asosan sanoat va xizmatlar sohalari** hissasiga to'g'ri keladi. Bunda sanoat sohasidagi respondentlarning **26,8 foizi** (*o'tgan yilning mos davrida 33,7 foiz*), xizmatlar sohasida esa **29,1 foizi** (*32,4 foiz*) kelgusi davrlarda ish o'rinlari sonini oshirishni rejalashtirishgan (*3.b-rasm*).

3-rasm. Ish o'rinlari sonining o'zgarishi bo'yicha korxonalar kutilmalari, foizda


Manba: Markaziy bank.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini-o'zi band qilgan shaxslar soni o'sishda davom etmoqda. Jumladan, 2025-yil 1-iyul holatiga yakka tartibdagi tadbirkorlar soni **296 ming nafarni** tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **3,6 foizga** oshgan. O'zini-o'zi band qilgan shaxslar soni esa ushbu davr mobaynida **1,5 barobarga** ko'payib, **5,5 million nafarga** yetdi (4-rasm).

Markaziy bank o'rganishlari so'nggi davrlarda mamlakat **iqtisodiyotida izchil o'sish barqaror** davom etayotganligini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, ushbu holat 2024-yil davomida hamda 2025-yilning o'tgan davrida yaqqol namoyon bo'lgan (5-rasmda *O'zbekiston bo'yicha Beverij egri chizig'i chappa vertikal siljigan*). Bunda mehnat bozorida bosimning kuchayishi, ya'ni ishsizlikning pasayishi bilan bir vaqtda ishchi kuchiga bo'lgan talabning ortib borishi kuzatilgan.


2025-yilning birinchi yarim yilligida **mehnat bozorida samaradorlik 2024-yilning so'nggi davrlariga nisbatan pastroq shakllandi**. Ya'ni, ishsizlik darajasining pasayishi sekinlashuvi sharoitida ish o'rinlari soni sezilarli oshdi. Bu, o'z navbatida, iqtisodiyotning kattalashayotganligidan dalolat bersa-da, mehnat bozorida **talab va taklif o'rtasidagi nomutanosiblik saqlanib qolayotganligini** bildiradi.

4-rasm. O'zini-o'zi band qilganlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar soni, ming kishi



Manba: Soliq qo'mitasi.

5-rasm. O'zbekiston bo'yicha Beverij egri chizig'i², foizda, mavsumiylikdan tozalangan



Manba: Milliy statistika qo'mitasi, KQBV va CEIC ma'lumotlari asosida Markaziy bank hisob-kitoblari.


Ish haqi dinamikasi

2025-yilning II choragida ish haqining nominal o'sish sur'ati yillik **17,2 foizni** va real o'sish sur'ati esa **7,3 foizni** tashkil etdi (6-rasm). Bunda o'rtacha oylik ish haqi qariyb **6,0 mln so'mga** teng bo'ldi.


Sohalar kesimida, moliya va sug'urta hamda axborot va kommunikatsiya xizmatlari yo'nalishlarida o'rtacha **ish haqining boshqa sohalarga nisbatan yuqori shakllanishi** saqlanib qoldi (*mos ravishda 16,3 va 14,8 mln. so'm*). Shu bilan birga, II chorak davomida **axborot, transport va ijtimoiy xizmatlar yo'nalishlarida faoliyat yurituvchi xodimlarning ish haqisi** qolgan tarmoqlarda faoliyat yurituvchilarnikiga nisbatan **real va nominal qiymatlarda yuqoriroq o'sdi**. Ish haqining eng kam o'sishi qurilish sohasida kuzatilib, ushbu sohada faoliyat yurituvchi xodimlarning o'rtacha ish haqi nominal qiymatda yillik **6,1 foizga** oshgan bo'lsa, real qiymatda **2,8 foizga** kamaydi (7-rasm).

² Beverij egri chizig'i ishsizlik va bo'sh ish o'rinlari darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettirib, mehnat bozori holati va iqtisodiyot barqarorligi bo'yicha muhim ma'lumotlarni taqdim etadi. Jumladan: 1) Beverij egri chizig'ining chap tomon pastga siljishi mehnat bozori samaradorligi oshganini bildiradi; 2) egri chiziqning o'ng tomon yuqoriga siljishi mehnat bozori samaradorligi pasayganligidan dalolat beradi; 3) egri chiziqning chapga vertikal siljishi iqtisodiyot kengayish bosqichiga kirayotganligini, o'ngga vertikal siljishi esa iqtisodiyot tanazzul (retsessiya) bosqichiga o'tayotganligini anglatadi.

6-rasm. Iqtisodiyotda ish haqining o'sish sur'ati, foiz



7-rasm. Ayrim tarmoqlarda o'rtacha ish haqi, mln so'mda




Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida Markaziy bank hisob-kitoblari.


Qo'shni davlatlarda ish haqi dinamikasi shakllanishi

So'nggi choraklarda O'zbekistonda real ish haqining o'sishi mintaqadagi davlatlar bilan solishtirganda nisbatan pastroq shakllanmoqda. Xususan, joriy yilning yanvar-mart oylari davomida Markaziy Osiyo davlatlarida real ish haqining o'rtacha o'sishi **9,8 foizni**, ayrim Kavkaz davlatlarini hisobga olganda esa **9,1 foizni** tashkil etdi (*ushbu davrda O'zbekistonda real ish haqi o'sishi 7,2 foizga teng bo'lgan, 1-rasm*). Iqtisodi o'xshash mamlakatlarga nisbatan mazkur tafovutning uzoq muddat saqlanib qolishi kelgusida O'zbekiston mehnat bozori ishtirokchilarining xarid qobiliyati pasayishiga va talabning susayishiga olib keladi.

1-rasm. Mintaqada real ish haqi o'sish sur'ati tendensiyasi, yillik foiz



2-rasm. Ayrim davlatlarda amaldagi mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori, AQSH dollarida



Manba: Markaziy bank, Milliy statistika qo'mitasi va CEIC ma'lumotlari asosida Markaziy bank hisob-kitoblari.

* Markaziy Osiyo va Kavkaz: Qozog'iston, Mongoliya, Gruziya, Armaniston, Ozarbayjon, Qirg'iziston va Tojikiston davlatlari.

** Markaziy Osiyo: Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston davlatlari.

Shuningdek, 2025-yilning II choragida O'zbekistonda mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori **91 AQSH dollarini tashkil etdi (2-rasm)**. Eng yuqori minimal ish haqi miqdori esa Belorusiya (243 AQSH dollari), Ozarbayjon (235 AQSH dollari) va Mongoliya (222 AQSH dollari) davlatlariga to'g'ri keladi.

O'zbekistonda yillik minimal ish haqining aholi jon boshiga YAIM hajmiga nisbati **35 foizga** teng bo'ldi. Ushbu ko'rsatkichning yuqoriroqligi mamlakatda daromadlar boshqa davlatlarga nisbatan tengroq taqsimlanganligini ko'rsatsa, nisbatning pastligi aksincha daromadlarning notekis taqsimlanganligidan dalolat beradi. Mintaqa davlatlari orasida Qozog'iston (14%), Qirg'iziston (14%) va Gruziya (12%) davlatlarini hisobga olmaganda, boshqa davlatlar, jumladan O'zbekistonning ushbu ko'rsatkichlari yuqoriroq va bir-biriga yaqin shakllangan.


Demografik holat

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilning 1-iyul holatiga iqtisodiyotda ish bilan band aholi soni **14,6 mln**, ishsizlar soni esa **800 ming** nafarni tashkil etdi. Mehnat bozorida qamrab olinmagan aholi, jumladan bolalar, talabalar, nafaqaxo'rlar va boshqalar soni **22,5 mln**, shundan mehnatga layoqatli yoshgacha bo'lgan aholi soni **12 mln** nafarga teng bo'ldi (8-rasm).

Mamlakatda aholining doimiy o'sib borishi va tarkibiy jihatdan yoshlar jami aholining salmoqli qismini tashkil etishi iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash bilan bir qatorda, kelgusida mehnat bozori uchun bosim yaratishi mumkin (1-ilova). Xususan, hozirgi mehnatga layoqatli yoshgacha bo'lgan **aholi asta-sekin mehnat bozoriga qo'shilib**, ish o'rniga bo'lgan talabni sezilarli oshiradi hamda bandlik, ish haqi darajasi va iqtisodiy unumdorlikka ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, so'nggi davrlarda mehnatga layoqatli yoshdagi (15-64 yosh) **aholi soni o'sish sur'atining sezilarli yuqorilashi** kuzatilmoqda. Xususan, o'sish sur'ati 2022-yildagi **0,8 foizdan** 2025-yilning I choragida **1,4 foizgacha** oshgan (9-rasm).


8-rasm. O'zbekiston aholisining mehnat bozoridagi taqsimoti, mln. nafar



Manba: Milliy statistika qo'mitasi.

Izoh: Mehnatga layoqatli yoshgacha bo'lgan aholi soni 2025-yil I-chorak holatiga

9-rasm. Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni o'sish sur'ati, 15-64 yosh, foiz



Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida Markaziy bank hisob-kitoblari.

Bu asosan aholining tarkibiy o'zgarishi, unda yoshlar ulushining o'sib borishi va ularning mehnat bozoriga tez kirib kelishi bilan ifodalanadi. Kelgusida ushbu tendensiyaning saqlanib qolishi hamda mehnat bozorida ishchi kuchi taklifining samarali o'zlashtirilishi iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash bilan bir qatorda, talab tomondan inflyatsion bosim ko'payishiga xizmat qilishi mumkin.


Pul o'tkazmalari dinamikasi va mehnat muhojirlari oqimi

2025-yilning ikkinchi choragida mehnat muhojirlari tomonidan O'zbekistonga jami **4,8 mlrd. dollar** miqdorida pul o'tkazmalari amalga oshirilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **21,4 foizga o'sdi** (*2024-yilning mos davrida 38,6 foiz o'sgan, 10-rasm*). Joriy dinamikaning shakllanishi asosan mehnat muhojirlarini qabul qiluvchi mamlakatlarda valyuta kurslarining nisbatan barqarorligi, ish haqining oshishi va iqtisodiy faollikning yuqori sur'atlari bilan bog'liq.


Shu bilan birga, II chorakda turli mintaqalardan jo'natilgan pul o'tkazmalari o'sish sur'atining sezilarli o'zgarishi kuzatildi. Xususan, Boltiq davlatlari, Yevropa va boshqa mintaqalardan o'tkazmalar hajmi o'sish sur'ati qolgan mintaqalarga nisbatan yuqoriroq saqlanib qoldi. Bunda, ayniqsa Boltiq davlatlaridan pul o'tkazmalarining sezilarli oshishi kuzatilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **65,6 foizga o'sdi**. Shuningdek, mazkur davrda AQSH, Rossiya va Yevropadan jo'natilgan pul o'tkazmalari o'sishining pasayishi (*mos ravishda 10,3, 23,7 va 26,9 foizgacha*) kuzatilgan bo'lsa, Osiyodan o'tkazmalarning barqarorlashuvi saqlanib qoldi (*11-rasm*).

Tashqi bozorda, xususan Rossiya, Yevropa va Boltiq davlatlarida kuzatilayotgan so'nggi o'zgarishlar hamda mehnat muhojirlariga bo'lgan talabning o'sishi pul o'tkazmalaridagi joriy dinamikaning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Bu, o'z navbatida, mehnat muhojirlari oqimi yo'nalishlari bosqichma-bosqich kengayayotganligidan dalolat beradi.

10-rasm. Pul o'tkazmalari dinamikasi, mlrd doll.



11-rasm. Ayrim mintaqalardan pul o'tkazmalari o'sish sur'atining o'zgarishi, yillik, foizda



Manba: Markaziy bankning hisob-kitoblari.

Izoh: **Boltiq davlatlari mintaqasi** Latviya, Litva va Estoniya davlatlarini, **Yevropa mintaqasi** Buyuk Britaniya, Shvetsiya, Polsha, Germaniya, Niderlandiya, Finlandiya, Ispaniya, Chexiya, Gruziya, Fransiya va Xorvatiya davlatlarini hamda **Osiyo mintaqasi** Qozog'iston, Janubiy Koreya, Turkiya, Isroil, Qirg'iziston, Birlashgan Arab Amirliklari, Tojikiston, Kipr va Yaponiya davlatlarini o'z ichiga oladi.

O'zbekiston aholisining demografik piramidasi (foizda)



Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida Markaziy bank hisob-kitoblari.

© O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2025-yil

Pul-kredit siyosati departamenti tomonidan tayyorlandi.

O'z taklif va e'tirozlaringizni quyidagi manzilga jo'natishingiz mumkin:

E-mail: sinogamov@cbu.uz

Tel.: (+998) 71 212-60-22